



INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA O'QITUVCHINING KREATIVLIGI

Meliyeva Dilfuza O'ralovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Abdanova Roxila Abduganiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 5 bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17334361>

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion ta'lim muhitining mazmuni, uning o'qituvchi faoliyatiga ta'siri hamda kreativlik tushunchasining pedagogik jarayondagi ahamiyati yoritilgan. O'qituvchining kreativ yondashuvi ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shaxsiy pedagogik mahoratni boyitish orqali namoyon bo'lishi ko'rsatiladi. Shuningdek, innovatsion muhitda kreativlikni rivojlantirish omillari, metodik tavsiyalar, xalqaro tajribalar va o'qituvchilar uchun zaruriy ko'nikmalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, kreativlik, pedagogik faoliyat, metodika, ta'lim texnologiyalari, kreativ muhit, shaxsiy rivojlanish, xalqaro tajriba.

Аннотация: В статье рассматривается содержание инновационной образовательной среды, её влияние на деятельность учителя, а также значение креативности в педагогическом процессе. Показано, что креативный подход педагога проявляется через использование интерактивных методов, внедрение современных технологий, развитие личного педагогического мастерства. Анализируются факторы развития креативности в инновационной среде, международный опыт, методические рекомендации и необходимые навыки для педагогов.

Ключевые слова: инновационное образование, креативность, педагогическая деятельность, методика, образовательные технологии, креативная среда, личностное развитие, международный опыт.

Annotation: This article explores the concept of an innovative educational environment, its impact on teachers' activities, and the significance of creativity in the pedagogical process. It highlights that a teacher's creative approach is reflected through the use of interactive methods, the integration of modern technologies, and the enrichment of personal pedagogical skills. The article analyzes factors that foster creativity in innovative environments, international experiences, methodological recommendations, and essential competencies for teachers.

Keywords: innovative education, creativity, pedagogical activity, methodology, educational technologies, creative environment, personal development, international experience.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Innovatsion ta'lim muhiti o'quvchilarda faollik, mustaqillik, ijodkorlikni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yadi. Bu jarayonda o'qituvchining kreativligi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan ta'lim sohasidagi davlat dasturlari ham zamonaviy pedagog kadrlarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lim

jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchini hayotga tayyorlovchi yo'l boshchiga aylanadi.

"Innovatsion ta'lim muhiti" tushunchasi ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantiruvchi sharoitlar majmui sifatida qaraladi. Bunday muhitning asosiy belgisi shuki, u an'anaviy dars modelidan farqli ravishda o'quvchini faol ishtirokchi sifatida ko'radi. O'quvchi darsda tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammolarni hal etuvchi, yangi bilimlarni izlovchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, innovatsion muhit ta'lim jarayonida differensial yondashuvni ta'minlaydi, ya'ni har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga oladi.

Kreativlik — bu yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yondashish, mavjud vaziyatga ijodiy qarash qobiliyatidir. O'qituvchi uchun kreativlik shaxsiy fazilatlar, kasbiy kompetensiyalar va pedagogik tajriba uyg'unligida namoyon bo'ladi. Kreativ pedagog o'quvchilarni ilhomlantira oladi, bilimlarni qiziqarli usulda yetkazadi, turli vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qiladi. Masalan, dars davomida texnik nosozlik yuzaga kelganda, oddiy o'qituvchi darsni to'xtatishi mumkin, ammo kreativ o'qituvchi vaziyatni yangi metod bilan qiziqarli mashg'ulotga aylantiradi.

Dunyo miqyosida ta'lim tizimida innovatsion muhit yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Finlyandiya ta'lim modeli o'quvchiga mustaqil izlanish imkoniyatini berish va o'qituvchining kreativligini qo'llab-quvvatlashga asoslangan. Janubiy Koreyada esa innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali kreativ dars modellarini joriy etish keng yo'lga qo'yilgan. AQShda esa STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta'limi o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tajribalarni o'rganish O'zbekiston ta'lim tizimida ham kreativ pedagoglarni tayyorlashda samarali bo'lishi mumkin.

O'qituvchining kreativligini rivojlantiruvchi omillarni shartli ravishda shaxsiy, pedagogik va texnologik omillarga ajratish mumkin. Shaxsiy omillar — o'qituvchining dunyoqarashi, yangilikka ochiqqligi, kasbiy motivatsiyasi. Pedagogik omillar — interfaol metodlardan foydalanish, fanlararo integratsiya, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar. Texnologik omillar — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy ta'lim vositalari, multimedia resurslari. Shu omillar uyg'unlashgan taqdirdagina o'qituvchi kreativligi to'liq namoyon bo'ladi.

Innovatsion ta'lim muhitida quyidagi metodlar o'qituvchi kreativligini ochib beradi: o'yinli metodlar, loyihaviy metod, muammoli vaziyatlar, fanlararo integratsiya. Masalan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish" mavzusida matematika va biologiya fanlari integratsiyasi asosida loyiha ishlab chiqish o'quvchilarning nafaqat bilimni, balki ijodiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, "Startup g'oyalar" mavzusida kichik biznes rejalar tuzish orqali o'quvchilarda amaliy ijodkorlik va tadbirkorlik ruhini shakllantirish mumkin.

O'qituvchi kreativligini baholashda quyidagilarga e'tibor beriladi: darsda yangi metodlardan foydalanish chastotasi, o'quvchilar faoliyatini ijodiy yo'naltirish darajasi, mustaqil fikrlash va g'oya taklif etish qobiliyati. Kreativlikni rivojlantirish uchun o'qituvchilarga muntazam malaka oshirish, xalqaro tajriba almashish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, pedagoglarni kreativlikka yo'naltirish uchun maxsus treninglar, seminarlar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur.



Xulosa qilib aytganda, inovatsion ta'lim muhiti o'qituvchidan yangicha yondashuvni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni talab qiladi. Kreativ o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydi, real hayotiy muammolarga yechim topishga yo'naltiradi. Shunday ekan, ta'lim tizimida innovatsion muhitni shakllantirish va o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki kelajak avlodni raqobatbardosh va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A.A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2021.
2. Qodirova M., Rustamova S. Pedagogik mahorat va kreativlik asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
3. Meliyeva D.O. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish mexanizmi. – Inter education & global study, 2025.
4. Мелиева, Д. (2024). Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarining mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishning davlat miqyosidagi ahamiyati. Журнал универсальных Научных исследований, 2(5), 1106-1108.